

INTERAKTIV YONDASHUV – BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION VOSITASI

Akmalova Mohinur Zafar qizi

p. f. f. d., dotsent Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xalilova Fotima Baxrom qizi

Magistrant, Maktabgacha ta’lim mutaxassiligi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

XalilovaF@gmail.com

+998 93 150 67 11

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Interaktiv yondashuvning mohiyati, afzallikkabi, qo‘llaniladigan metodlar va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Pedagogika kollejlari va universitetlarida olib borilgan kuzatuvlar, so‘rovnomalar, test sinovlari va pedagogik tajriba natijalari asosida interaktiv yondashuvning bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijobjiy ta’siri ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorlarligi jarayonida interaktiv yondashuvdan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: interaktiv yondashuv, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, ta’lim metodlari, pedagogika kolleji, universitet, maktabgacha ta’lim, faol ta’lim, innovatsiya.

I. KIRISH

XXI asr globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davri bo‘lib, barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham yangi talablar qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, jumladan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalar maktabgacha ta’lim tizimida ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tarbiyachi nafaqat bolalarga bilim beruvchi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashuvchi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan mutaxassis bo‘lishi lozim. Bu esa, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorlarligi jarayoniga yangicha yondashuvni, zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida interaktiv yondashuvga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Interaktiv yondashuv – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning faol hamkorligini ta’minlovchi, ularning o‘zaro ta’sirini kuchaytiruvchi, bilim olishga qiziqishini oshiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi, o‘quv jarayonida faol ishtirot etishga yo‘naltiruvchi ta’lim usulidir.

Interaktiv yondashuvning an'anaviy ta'lim metodlaridan afzalligi shundaki, u talabalarning o'quv jarayonida subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik qilish, muammolarni birgalikda hal etish, kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik, psixologik, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va boshqa kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida interaktiv yondashuvni qo'llash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion vositasi sifatida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Maqolaning maqsadi: Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning mohiyatini ochib berish, uning afzalliklarini asoslash va amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish.

Maqolaning vazifalari:

- Interaktiv yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish.
- Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalari tarkibini aniqlash.
- Interaktiv yondashuvning bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi rolini ko'rsatish.
- Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida interaktiv yondashuvni qo'llashning metodik tavsiyalarini ishlab chiqish.
- Ushbu mavzu bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish.

Tadqiqotning obyekti: Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvni qo'llashning didaktik imkoniyatlari.

II.METODLAR

Ushbu tadqiqot bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda kompleks metodlardan foydalanildi, ular nazariy, empirik va statistik usullarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi:

I bosqich (2024-yil sentabr - dekabr):

- Mavzu bo'yicha ilmiy-nazariy adabiyotlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar va boshqa manbalarni o'rganish va tahlil qilish.
- Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha dasturlar, o'quv rejalarini va metodik materiallarni tahlil qilish.
- Pedagogika kollejlari va universitetlarida o'quv jarayonini kuzatish, o'qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o'tkazish.
- Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, faraziyani shakllantirish, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish.

II bosqich (2025-yil yanvar - mart):

- Pedagogik tajriba o'tkazish (eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, o'quv jarayoniga interaktiv metodlarni joriy etish).
- Olingan natijalarni kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, test sinovlari va intervylular orqali ma'lumotlar toplash.
- Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish, natijalarni interpretatsiya qilish va xulosalar chiqarish.
- Metodik tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish.

Tadiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi nazariy metodlardan foydalandik:

Adabiyotlar tahlili. Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarni, dissertatsiyalarni, ilmiy maqolalarni, o'quv qo'llanmalarni va boshqa manbalarni o'rghanish orqali tadqiqotning nazariy asoslari aniqlandi, kasbiy kompetensiya, interaktiv yondashuv, interaktiv metodlar kabi asosiy tushunchalarga aniqlik kiritildi, muammoning o'rganilganlik darajasi baholandi.

Qiyosiy tahlil. Ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni, interaktiv ta'lim metodlarini, bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha dasturlarni qiyosiy tahlil qilish orqali eng samarali usullar aniqlandi va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Modellashtirish. Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvni qo'llashning kontseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o'quv jarayonining maqsadlarini, vazifalarini, tamoyillarini, metodlarini, shakllarini, vositalarini va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi.

Sistemali tahlil. Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi jarayoni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi, uning tarkibiy qismlari aniqlandi, ularning o'zaro aloqalari va bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'siri baholandi.

Tadiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi empirik metodlardan foydalandik:

Kuzatuv. Pedagogika kollejlari va universitetlarida bo'lajak tarbiyachilarining o'quv mashg'ulotlaridagi faoliyati kuzatildi. Kuzatuv davomida talabalarning interaktiv metodlarga bo'lgan munosabati, o'quv jarayonida ishtiroki, faolligi, o'zaro hamkorligi, bilim olishga qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, muloqot ko'nikmalarini kabi ko'rsatkichlar qayd etib borildi.

So'rovnoma. Bo'lajak tarbiyachilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada interaktiv metodlarning o'quv jarayonidagi samaradorligi, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli, o'qituvchilarining interaktiv metodlarni qo'llashga tayyorligi, mavjud muammolar va yechimlar haqida savollar berildi.

Intervyu. Pedagogika kollejlari va universitetlarining o'qituvchilari, metodistlari, amaliyotchilari va tajribali tarbiyachilar bilan intervyu o'tkazildi. Intervyu davomida ularning interaktiv ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, tajribalari, muammolari va kelgusidagi rejalarini aniqlashga harakat qilindi.

Test sinovlari. Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy bilimlarini, amaliy ko'nikmalarini va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash maqsadida test sinovlari

o'tkazildi. Test sinovlari kasbiy fanlar bo'yicha bilim darajasini, pedagogik vaziyatlarni hal etish qobiliyatini, bolalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini va boshqa muhim kasbiy kompetensiyalarni baholashga qaratilgan edi.

Pedagogik tajriba (eksperiment). Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning samaradorligini empirik tarzda tekshirish maqsadida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajribada ikki guruh ishtirok etdi: eksperimental guruh va nazorat gurushi. Eksperimental guruhda o'quv jarayoni interaktiv metodlar asosida tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi. Tajriba davomida talabalarning o'zlashtirish darjasini, kasbiy ko'nikmalari, faolligi va o'quvga bo'lgan qiziqishi muntazam ravishda kuzatib borildi.

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi statistik metodlardan foydalanildi:

Deskriptiv statistika. Ma'lumotlarni umumlashtirish, taqdim etish va tasvirlash uchun o'rtacha qiymat, standart og'ish, chastota, foiz kabi ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi.

Inferensial statistika. Guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, gipotezalarni tekshirish va xulosalar chiqarish uchun t-testi, ANOVA, chi-kvadrat kabi statistik testlar qo'llanildi.

Korrelyatsion tahlil. Talabalarning kasbiy kompetensiyalari va interaktiv metodlarning qo'llanilishi o'rtasidagi bog'liqlik darjasini aniqlash uchun korrelyatsion tahlil o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligini ta'minlash uchun quyidagi choralar ko'rildi:

Tadqiqot maqsad va vazifalariga mos keluvchi metodlar tanlandi.

➤ Ma'lumotlar to'plash uchun foydalanilgan vositalar (so'rovnomalari, testlar va h.k.) validlik talablariga javob beradi.

➤ Tadqiqot natijalari boshqa sharoitlarda ham takrorlanishi mumkin.

➤ Ma'lumotlarni statistik tahlil qilishda to'g'ri statistik metodlar qo'llanildi va natijalar to'g'ri interpretatsiya qilindi.

➤ Tadqiqot xulosalari empirik ma'lumotlarga va nazariy tahlilga asoslangan.

Ushbu metodlar kompleksi bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning samaradorligini har tomonlama va ob'ektiv baholash imkonini beradi.

III.NATIJALAR

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning samaradorligini aniqlash edi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar tahlili quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi. Pedagogika kollejlari va universitetlarida bo'lajak tarbiyachilarining o'quv mashg'ulotlarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar qo'llanilgan eksperimental guruhda quyidagi ijobjiy o'zgarishlar kuzatildi:

➤ Interaktiv darslarda talabalar an'anaviy darslarga nisbatan ko'proq savollar berishdi, muhokamalarda ishtirok etishdi, o'z fikrlarini asoslashga harakat qilishdi va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishdi.

➤ Talabalar kichik guruhlarda ishlashda, loyihalarni birgalikda bajarishda, o‘zaro yordam ko‘rsatishda va bilim almashishda ko‘proq faollik namoyon etishdi.

➤ Interaktiv metodlar talabalarning o‘quv materialiga nisbatan qiziqishini oshirdi, ular darslarga ko‘proq tayyorlanib kelishdi, qo‘sishma manbalardan ma’lumot izlashdi va mustaqil ravishda o‘rganishga intilishdi.

➤ Interaktiv darslar talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, yangi g‘oyalar yaratish, kreativ yondashuvni namoyon etish imkoniyatini berdi.

Bo‘lajak tarbiyachilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

➤ Talabalarning 85% va o‘qituvchilarning 90% interaktiv metodlar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qiladi deb hisoblashdi.

➤ Talabalarning 80% va o‘qituvchilarning 88% interaktiv metodlar ularning pedagogik, psixologik, metodik, kommunikativ va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi deb hisoblashdi.

➤ O‘qituvchilarning 65% interaktiv metodlarni qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasliklarini bildirishdi.

➤ O‘quv materialining yetarli emasligi, vaqtning cheklanganligi, talabalarning tayyorgarlik darajasining pastligi va texnik ta’minotning yetarli emasligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatildi.

Test sinovlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik tajribadan so‘ng eksperimental guruhdagi talabalarning kasbiy bilimlar darajasi va amaliy ko‘nikmalari nazorat guruhdagilarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Test sinovlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajribadan so‘ng eksperimental guruhdagi bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy bilimlar darajasi va amaliy ko‘nikmalari nazorat guruhdagilarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ushbu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, interaktiv yondashuvning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Xususan, tajribadan oldin eksperimental guruh talabalari pedagogik kompetensiya bo‘yicha o‘rtacha 65 ball to‘plagan bo‘lsalar, tajribadan keyin bu ko‘rsatkich 80 ballga yetgan, ya’ni 23.1% o‘sish kuzatilgan. Nazorat guruhida esa pedagogik kompetensiya bo‘yicha o‘rtacha ball tajribadan oldin 60 ball bo‘lgan bo‘lsa, tajribadan keyin 68 ballga yetgan, bu esa 13.3% o‘sishni tashkil etadi.

Psixologik kompetensiya bo‘yicha eksperimental guruhda o‘rtacha ball tajribadan oldin 70 ballni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan keyin 85 ballga yetgan (21.4% o‘sish). Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 65 balldan 72 ballga ko‘tarilgan (10.8% o‘sish).

Metodik kompetensiya bo‘yicha ham xuddi shunday tendensiya kuzatilgan. Eksperimental guruhda o‘rtacha ball tajribadan oldin 60 ball bo‘lgan bo‘lsa, tajribadan keyin 75 ballga yetgan (25.0% o‘sish). Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 55 balldan 62 ballga ko‘tarilgan (12.7% o‘sish).

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv yondashuv bo‘lajak tarbiyachilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini va turli kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir. Interaktiv metodlar talabalarga o‘quv jarayonida faol ishtirok etish, o‘zaro hamkorlik

qilish, muammolarni birgalikda hal etish, ijodiy fikrlash va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatda qo'llash imkoniyatini beradi, bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarining yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv usullar asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni eksperimental guruhdagi bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir. Eksperimental guruhdagi talabalar nazorat guruhdagilarga nisbatan yuqori ball toplashdi, pedagogik vaziyatlarni hal etishda ko'proq mustaqillik va ijodkorlik namoyon etishdi va bolalar bilan muloqot qilishda ko'proq ko'nikmalarga ega ekanliklarini ko'rsatishdi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlarning qo'llanilishi va bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi o'rtaida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud ($r = 0.75$, $p < 0.01$). Bu degani, interaktiv metodlar qanchalik faol qo'llanilsa, talabalarning kasbiy kompetensiyalari shunchalik yuqori darajada rivojlanadi.

Ushbu natijalar bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida interaktiv yondashuvni qo'llash muhimligini tasdiqlaydi va ta'lim muassasalarida interaktiv metodlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

IV. XULOSA

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning o'mi va ahamiyatini aniqlashga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv yondashuv bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi va ularning pedagogik, psixologik, metodik, kommunikativ hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va talabalar uchun jozibali qiladi. Talabalar interaktiv darslarda an'anaviy darslarga nisbatan ko'proq faollik namoyon etishdi, o'zaro hamkorlik qilishdi, o'quv materialiga nisbatan qiziqishlari ortdi va ijodiy qobiliyatları rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, ularning kasbiy kompetensiyalarining yuqori darajada shakllanishiga zamin yaratdi.

So'rovnoma natijalari bo'lajak tarbiyachilar va o'qituvchilarining interaktiv metodlarning samaradorligini yuqori baholashlarini ko'rsatdi. Aksariyat respondentlar interaktiv metodlar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi vosita deb hisoblashdi. Shuningdek, o'qituvchilarining interaktiv metodlarni qo'llashga tayyorlik darajasi yetarli emasligi va interaktiv metodlarni qo'llashda muayyan muammolar mavjudligi aniqlandi.

Test sinovlari natijalari pedagogik tajribadan so'ng eksperimental guruhdagi talabalarning kasbiy bilimlar darajasi va amaliy ko'nikmalari nazorat guruhdagilarga nisbatan sezilarli darajada oshganligini tasdiqladi. Bu interaktiv yondashuvning bo'lajak tarbiyachilarining nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy

ко'никмаларини ва kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik tajriba natijalari ham interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni eksperimental guruhdagi bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligini tasdiqladi.

Statistik tahlil natijalari interaktiv metodlarning qo'llanilishi va bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu degani, interaktiv metodlar qanchalik faol qo'llanilsa, talabalarning kasbiy kompetensiyalari shunchalik yuqori darajada rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan natijalarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Interaktiv yondashuv bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

2. Interaktiv metodlar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, faol va talabalar uchun jozibali qiladi.

3. Interaktiv metodlar talabalarning o'zaro hamkorlik qilish, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Pedagogika kollejlari va universitetlarida interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan.

5. O'qituvchilarining interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli emas.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

➤ Pedagogika kollejlari va universitetlarida interaktiv metodlarni keng joriy etish.

➤ O'qituvchilarining interaktiv metodlarni qo'llash bo'yicha malakasini oshirish.

➤ Interaktiv metodlarni qo'llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish (o'quv materiallari, texnik ta'minot va h.k.).

➤ Bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv dasturlariga interaktiv metodlarni integratsiya qilish.

➤ Interaktiv yondashuvning samaradorligini o'rganish bo'yicha kelgusida tadqiqotlar o'tkazish.

Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida interaktiv yondashuvdan foydalanishning muhimligini ko'rsatib berdi va ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam berdi. Tadqiqot natijalari asosida qabul qilingan choralar mакtabgacha ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish, interaktiv metodlarning turli shakllarini o'rganish, ularning samaradorligini baholash va amaliyotga tatbiq etish orqali bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shish mumkin.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Hoshimov, Q. H., Pedagogika nazariyasi. / Yakubov, Sh. S. – T.: “Nosir” nashriyoti. 2017. – 248 b.
- 2.Ibragimov, X. I. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Sharq” nashriyoti. 2010. – 259 b.
- 3.Mahmudov, N. M. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Navro‘z” nashriyoti. 2020. – 208 b.
- 4.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O'RQ-637, 2020-yil 23 sentabr.
- 5.Ro‘zieva, D., Usmonova, D., Xalıqova, N. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Science and innovation in the education system – 2023. – № 3. – B. 134-139.
- 6.To‘raev,A.B. Bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, – 2024. – № 3. – B. 542-548.
- 7.Umarov, B. Interaktiv ta’lim metodlari. – T.: O‘qituvchi nashriyoti. 2021. – 124 b.